

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

#### PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA MILLIY AN'ANALARDAN FOYDALANISH METODIKALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI.

Mengliqulova Maftuna Abdullayevna, Angor pedagogika kolleji  
Maxsus fan o'qituvchisi

#### ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Менгликулова Мафтуна Абдуллаевна, Ангорский педагогический колледж  
Учитель специального предмета

#### IMPORTANCE OF IMPROVING THE METHODS OF USING NATIONAL TRADITIONS IN THE TEACHING OF PEDAGOGICAL SCIENCES IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM.

Menglikulova Maftuna Abdullayevna,  
Angor Pedagogical College  
Special subject teacher

Professional ta'lism dasturi YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limganing Xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rinn egallashlariga to'sqinlik qilmoqda.

Professional ta'lism tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalg qilish ko'zda tutilgan.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limganing Xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism tizimi hamda tabaqlashtirilgan ta'lism dasturi joriy etiladigan ta'lism muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lism dasturlari asosida 9-sinif bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab quvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lism (kasb-hunar maktablari) bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lism muassasalari .

Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lism dasturlari asosida o'rta professional ta'lism (kollejlar) bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lism muassasalari .

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lism dasturlari asosida oliy ta'lism tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lism (texnikumlar) bosqichlarida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lism muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lism muassasalari faoliyat yuritadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lism tizimida tubdan o'zgartirishl, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikirlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga xech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch imkonyatini safarbar etamiz", [2:146] -degan fikrlar yosh avlodni milliy an'analar ruhida, yetuk, barkamol etib tarbiyalashda asosiy manba bo'lib hizmat qiladi. Sharqda milliy an'nalar asosida tarbiyalash avvalo oiladan boshlanadi. Masalan kichkinalarning kattalarga salom berishi, uylarni tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga hurmat ko'rsatish, qariyalardan, kasallar, ojizlar qiynganganlardan xabar olish, qo'ni -qo'shilarga yordam berish va boshqalari o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf- odatlar hisoblanadai. Odob -axloq milliy an'ana va qadriyatlarimizning bir qismidir. "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijyimoiy adolat va

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi” [1:5]. Shu o’rinda har bir insoning o’zining qadriyatlari muhimdir. Milliy an’ana va urf-odatlarni o’zida mujassamlashtirgan ma’naviy munosabatlarni shakllantirishda asosiy manba bo’lib hizmat qiladi. *Qadriyatlar ichida milliy qadriyatlar ham inson ijtimoiy mohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Milliy qadriyatlarga yuksak axloq, imon, e’tiqod, insof-diyonat, yaxshi xulq-atvorni targ’ibot qiluvchi boy ma’naviymerosimiz, urf – odatlارимиз, an’analarимиз kiradi.* [10:240] Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o’sib borishi, muayyan an’analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga yetkazilib turilishidan manfaatdor bo’lgan. Buyuk rus psixolog A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatii o’rganib, ilk asarlaridan birida, agar shunday muloqot bo’lmaganida, taraqqiyotning o’zi ham mutloq bo’lmas edi, deb ta’kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo’lagi bo’lmish oilaning roli kattadir. Har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o’lmas merosi, avloddan-avlodga o’tib boradigan an’analari bo’ladi. Fuqarolik holatlari, madaniy o’sish, madaniy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi. [7:18,19] S. Temurovaning «Axloqiy tarbiya tizimida xalq an’analari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida axloqiy tarbiya jarayonida milliy an’analardan foydalanish yuzasidan bir qator nozik kuzatishlar qilingan, sog’lom xulosalar chiqarilgan. R.R.Hakimovning ishida esa kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish jarayoni, mazmuni, shakli, usuli, vositalari va texnologiyalari o’rganilgan. Lekin mazkur ishlarda pedagogika kollejlari o’quvchilarini ma’naviy – marifiy, milliy an’analardan foydalanib tarbiyalash orqali ularning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalalari deyarli tadqiq etilmagan. [4:21] Har bir milliy an’analardan, asosiy qismini muayyan bir millat yaratса ham, unda jahon xalqlari milliy an’analar, madaniyati, umuminsoniy tushunchalarining bu millat madaniyatiga, milliy an’analardan, urf odatlarga ta’siri mavjud buladi.

Etnopedagog G.N.Volkovning ta’kidlashicha, «Har bir xalqning kuchli va o’ziga xos jihatlarini ta’kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o’z ahamiyatini yo‘qtgan emas» [8:23] Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o’zbekcha mehmondo’stlik kabi ijobiy fazilatlar shular jumlasidandir. Xalqlaming pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi V.G.Belinskiy: «Har bir millatning o’ziga xosligi, asosan faqat shu millatga xos dunyoqurash, din, til, urf-odatlar va an’analardir», - deydi. o’tmishda yig’ilgan ma’rifiy boyliklami buyuk faylasuf Gegel «o’zidan kuch taratuvchi ona yer» bilan taqqoslagan. Uning ta’kidlashicha, «ilm-fan va ta’limning har bir yangiligi uning qadimiylikka murojaatidan kelib chiqadi». Demak, madaniyatning, jumladan pedagogik madaniyatning an’anaviyligi xalqlaming yuqori madaniyatining muhim belgisidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: «Xalqlaming o’z qadimiy madaniyatiga e’tibori va qiziqishning uyg’onishi ulaming xaqiqiy donoligidan dalolatdir» [3], - deydi. «Xalq pedagogikasi - xalq og’zaki ijodida, urf-odatlarda, marosimlarda, bolalar o’yinlari va o’yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma’lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir». [8:53] O’rta profissional ta’lim tizimi pedagogika kollejlari o’quvchilarning milliy an’analar va qadriyatlar asosida tarbiyalash usullari xilma-xildir. Bunda o’quvchilar bilan ishlash mazmuni ota-onalar va pedagoglar jamoasining hamkorlikka asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan ish rejalar bilan belgilanishi zarur. Yoshlarda milliy qadriyatlar va an’analar asosida tarbiyalashda xilma-xil usullardan foydalanish lozim:

- dars, ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo’shib olib borish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish
- samarali natijalarini kafolatlaydigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
- ijobiy emosional muhit yaratish orqali: Masalan, Mustaqillik kuni, Navro’z bayramini

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

nishonlash; "Avlodlar uchrashuvi"; "Ochiq eshiklar kuni", "Sog' tanda – sog' aql" kabi tadbirlarni uyushtirish;

- tarbiyaviy soatlar, "Ma'naviyat kunlari"; "Ma'naviyat asoslari", pedagogika, adabiyot darslarining saviyasini oshirish orqali;

- turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy-ma'rifiy, milliy bayramlar badiiy-estetik tele-radio eshittirishlaridan foydalanish;

- dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan ma'rifiy asarlarni o'qib-o'rganish orqali.

- O'quvchilarda ma'naviy madaniyatni tarbiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o'z ifodasini topadi: jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Milliy g'urur, milliy odob, milliy iftixor. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash (bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalananadi);

- atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat (shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishidir);

- shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi – bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Har bir xalqning og'zaki ijodi ham o'quv-tarbiyaviy jarayonga katta ro'1 o'ynaydi. Og'zaki xalq amaliy san'ati yordamida bola o'z xalqining o'tmishini, urf-odat va marosimlari, uning tabiat va jamiyat hodisalariga munosabati. Nutqining rivojlanishida xalq og'zki ijodi namunalaridan xususan ertaklardan foydalanish o'quvchilarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, qahramonlik,adolatparvarlik, shaxsga hurmat ruhida tarbiyalash eng muhim usullardan biridir. [6:15].

Professional ta'limning o'rta bosqichidagi Pedagogika kollejlari o'quvchilarida milliy an'analarini va qariyatlarimiz chuqurroq anglatishda Umumiy pedagogika va Maktabgacha pedagogika fanlari katta imkoniyatga ega. Ta'lim jarayonini kuzatish va mazkur fanlarning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish Umumiy pedagogika va Maktabgacha pedagogika o'quv fanlari vositasida o'quvchilarda milliy ruxda va ma'naviy-madaniyatni rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish imkoniyati mavjudligini tasdiqladi: 1. O'quvchilarni bonyodkor va buzz'unchi g'oyalar, mafkuraviy tahdidlar, shuningdek, milliy an'ana va qadriyatlarimizning mohiyati, ularning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarda etnopedagogika g'oyalari va unin mazmun moxiyatini yanada chuquroq undashda muxim vositadir.

3. Ularda milliy an'ana va qadriyatlarimizning mohiyati, o'zlashtirish yo'lida amaliy harakat qilish, xususan, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini tanqid kabi sifatlarni tarbiyalash malakalarini yanada rivojlantirish.

4. O'quvchilarning mafkuraviy tahdidlar xayfi mavjud sharoitda g'oyaviy immunitet va tolerantlik sifatlariga ega bo'lishlariga erishish. Shunisi diqqatga sazovorki, pedagogika darslarida aks ettirilgan komil inson tarbiyasi, yuksak ma'naviy madaniyatning mazmuni, mohiyatini ochishda yoshlarda odob-axloq, milliy ruh va qadriyatlarning o'ziga xosligini anglash va o'z shaxsida, kundalik faoliyati davomida ham shunday ajoyib insoniy fazilatlarni hosil qilish istagini uyg'otish zarur buladi. Bu esa pedagogika boshqa fanlar bilan ta'lim-tarbiya masalalarini uyg'unlikda, uzviylikda olib borish imkonini beradi, pedagogika fanining imkoniyatlari naqadar keng ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchi dars jarayonlari orqali milliy an'analarimizning insonlar hayotidagi, o'zaro insoniy munosabatlardagi o'mmini uning kishi ongi va xulqiga ta'sirini, voqealar rivojidagi rolini ko'rsatib, o'quvchilarga bu mavzuda ilk tushunchalarni beradi,

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

ma'naviyat yuksak ma'naviy madaniyat va unga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, biz avvalo pedagogika kollejlarida o'qituvchilar tomonidan ushbu mas'uliyatlari vazifaning bajarilishi o'rganildi. Bundan ko'zlangan maqsad – o'qituvchilarining kollej o'quvchilarida milly an'anaviy ruxda tarbiyalashda "Pedagogika" darslari orqali tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish, tahlil qilish edi. Shunday qilib, bir necha oy davomida, so'rov varaqalari yordamida, suhbatlar natijasida olingen javoblar, ko'zatilgan darslar tahlili asosida o'qituvchilarining bu masalaga nisbatan bir necha xil nuqtai nazari mavjudligi hamda ular o'z usullari, o'ziga xos metodikalarga asoslanishlari aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar zamirida katta tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud, zero ularning barchasi ajdodlarimizdan qolgan madaniy meros sanaladi. Milliy to'ylar, ommaviy bayram - sayllar, sharqona va turkona an'analar, hayit bayramlarida xalqimizning o'zigaxosligi yorqin aks etadi. [5:11] Shu o'rinda professional ta'lismizda pedagogik fanlarni o'qitishda milliy an'analardan foydalanish metodikalarini takomillashtirish usullaridan eng muhammo o'quvchilaga o'tilayotgan dars mashg'ulotlari davomida berilayotdan ilmiy ma'lumotlardir. Hozirgi kunda professional ta'lismizda har bir fan uchun o'qitish materiali ishlab chiqilmoqda. Aytish joizki pedagogika fanlaridan yaratilayotgan o'qitish materlleridagi mavzularga milliy an'ana va qadriyatlarimiz bilan boyitib borilsa o'quvchi yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs etib tarbiyalashda ulkan zamin bo'lib xizmat qiladi. Pedagogika kollejlarining ixtisoslik yo'nalishlaridan kelib chiqib, mutaxassislik fanlari imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilarining milliy an'analaramizni yanada chuqrroq bilishlari uchun manbalarni yaratish. Professional talim tizimida o'quvchilarining milliy an'analaramizni yanada chuqrroq bilishlarini rivojlantirishga oid tajribalarni ommalashtirish maqsadida pedagogik o'quv va amaliy seminarlarni tashkil etish.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarini shaxs ma'naviy madaniyatini boyitishda katta imkoniyatlarga ega milliy meros namunalari (milliy hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi, milliy qo'shiq va raqs san'ati, xalq teatri va milliy dorbozlik tomoshalari, milliy me'morchilik, milliy adabiyot, miniatyura va hattotlik san'ati hamda hokazolar) bilan bevosita tanishtirib borish, shu maqsadda ekskursiya va sayohatlar uyuştirish.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T, "O`zbekiston", 2012 2-bob 14-modda B
2. Shavkat Mirziyoyev . Miiliy taraqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O`zbekiston", 2016 b. 146 b
3. Abu Nasr Farobi. Risolalari, - T. : Fan, 1975
- 4.Hakimov R.R. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida tadbirdorlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2006. – 21 b.
- 5 Mutualipova M.J Xalq pedagogikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,11 bet.
6. Qodirov. B Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma Termiz – 1995 15 b
7. Vasila Karimova. Oila psixologiyasi – T.: Fan va texnologiya, 2008. – bet 18,19.
- 8 Volkov G. N Etnopedagogika , -T. : Fan, 2000 23-bet
9. Volkov G. N Etnopedagogika , -T. : Fan, 2000 53-bet
10. Yusubov D.A, Saitxodjayev X.B, Mavlyanov A.A Falsafa. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012. - bet 240